



SUT CHORVACHILIGINI INNOVATSION ASOSDA STRATEGIK RIVOJLANTIRISH

*Eshqulova Hilola Shoyimqul qizi -
Guliston davlat universiteti doktoranti*

https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss5/a7

Annotatsiya. Yer yuzida aholi soni shiddat bilan o'sib borayotgan bir vaqtda insonning birlamchi ehtiyoji – oziq-ovqatga bo'lgan ehtiyoji yanayam oshib bormoqda. Biz ushbu maqolada chorvachilikni strategik rivojlantirishga ta'sir etuvchi omillar va bu yuzasidan chet el olimlarining fikrlari, soha rivojida muhim ahamiyat kasb etuvchi innovatsion texnologiyalar va ularning tahlili, chorvachilikda innovatsiyalarni keng joriy etish orqali fermerlarning mehnat jarayonini yengillashtirish, sog'lom, sifatli sut mahsulotlarini taklif qilish, mijozlar ehtiyojini yaxshiroq va kengroq qondirishga qaratilgan chora-tadbirlar haqida fikr yuritdik.

Kalit so'zlar: chorvachilik, sutchilik, innovatsiya, strategik rivojlanish, qishloq xo'jaligi, naslchilik, ozuqa, veterinariya, ETT, ART, TMR.

СТРАТЕГИЧЕСКОЕ РАЗВИТИЕ МОЛОЧНОГО РАЗВЕДЕНИЯ НА ОСНОВЕ ИННОВАЦИЙ

*Эшқулова Хилола Шойимқул кизи -
Докторант Гулистанского государственного университета*

Аннотация. В то время как население Земли стремительно растёт, потребность в пище, которая является основной потребностью человека, вновь возрастает. В данной статье мы обсудим факторы, влияющие на стратегическое развитие животноводства и мнения зарубежных ученых по этому поводу, инновационные технологии, имеющие важное значение в развитии отрасли и их анализ, облегчающий трудовой процесс фермеров за счет широкого внедрения инноваций в животноводстве, предложение здоровых, качественных молочных продуктов. Мы подумали о мерах – мероприятиях, направленных на лучшее и более широкое удовлетворение потребностей клиентов.

Ключевые слова: животноводство, молочная промышленность, инновации, стратегическое развитие, сельское хозяйство, племенная работа, корма, ветеринария, ЭТТ, АРТ, ПМР.

STRATEGIC DEVELOPMENT OF DAIRY FARMING BASED ON INNOVATION

*Eshkulova Khilola Shoyimkul kizi -
Doctoral student at Gulistan State University*

Abstract. While the population on earth is rapidly growing, the need for food, which is the primary human need, is increasing again. In this article, we will discuss the factors affecting the strategic development of animal husbandry and the opinions of foreign scientists in this regard, innovative technologies that are important in the development of the industry and their analysis, easing the labor process of farmers through the wide introduction of innovations in animal husbandry, offering healthy, high – quality dairy products. We thought about the measures – activities aimed at better and wider satisfaction of customer needs.

Key words: livestock, dairy, innovation, strategic development, agriculture, breeding, feed, veterinary, ETT, ART, TMR.

Kirish. XXI asr chin ma'noda innovatsiyalar va texnika-texnologiyalar asri bo'lib, bugun hech bir sohani, hech bir tarmoqni ularsiz tasavvur etib bo'lmaydi. Ushbu rivojlanishda kompyuter tizimlari va dasturiy ta'minotni ilovalar orqali boshqarish ish faoliyatni yuritishda ko'plab qulayliklarni yaratadi. Shu jumladan, chorvachilik sohasida ham texnologik asbob-uskunalarni qo'llash fermerlarga yanada qulay ishlash va chorvachilik mahsuldorligi va rentabelligini oshirish imkonini beradi. Ayni vaqtda aqlli tizimlardan samarali foydalanish fermerlar faoliyatida bir qancha yengilliklarni yuzaga keltiradi. Jumladan, sog'ish, oziqlantirish, atrof-muhitni nazorat qilish, reproduktiv ko'rsatkichlarni to'g'ri boshqarishga doir qarorlarni o'z vaqtida va tizimli qabul qilishda innovatsion texnologiyalarning o'rni juda aha-

miyatlidir. Shu o'rinda aytib o'tishimiz kerakki, texnologik imkoniyatlardan nafaqat katta chorvachilik obyektlarida, balki qoramol soni kam bo'lgan kichik fermalarda ham foydalanishni yo'lga qo'yish juda muhim. Sababi har bir mintaqaning har bir hududida har bir fermer xo'jaligi tomonidan yetishtirilgan mikrodarajadagi sut mahsulotlari makrodarajada jahon iqtisodiyotiga hissa qo'shmoqda. Ushbu innovatsiyalarning natijasi sifatida esa har bir bosh sigirdan olinadigan sutning hosildorligi oshishiga erishishimiz shubhasizdir.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Bugungi kunda yer yuzida 7 milliarddan ortiq aholi istiqomat qilmoqda. 2050-yilga borib esa insoniyat 9 milliardlik marrani oshib o'tishi taxmin qilinayotgan bir davrda qishloq xo'jaligining zimmasiga dunyo aholi-

sini oziq-ovqat bilan ta'minlash vazifasi yuklanmoqda. Ushbu ssenariyga ko'ra hozirgi va kelajakdagi zarur bo'lgan oziq-ovqat mahsulotlarini yetishtirish uchun tabiiy resurslardan, ya'ni yer, suv, tuproq va havodan samarali foydalanmas ekanmiz, ularni himoya qilmas ekanmiz, davrlar mobaynida bu butun tabiat va insoniyat uchun katta fojiga sabab bo'lishi mumkin. Yer resurslariga bo'lgan bugungi bosim qishloq xo'jaligida samaradorlikni oshirishga yanada keng qiziqish uyg'otdi.

V.I.Gayduk, Yu.I.Bershitskiy, E.A.Shibani-xin, V.V.Berezenkov, E.I.Artemova hammuallifligida yozilgan monografiyada sut yo'nalishidagi qoramolchilik xo'jaliklarida tejamli resurs texnologiyalarini qo'llash, yem-xashak yetishtirish va xo'jaliklar samaradorligining nazariy jihatdan omillari o'rganilib chiqilgan. Bunda Krasnodar Respublikasi qishoq xo'jaligi korxonalarini misolida yem-xashak yetishtirishni rivojlantirish darajasi o'rganilgan, sut yo'nalishidagi xo'jaliklar holati ko'rib chiqilib, tahlil etilgan [1].

Habtam Lemma "Chorvachilik sohasi aholini yuqori sifatli oziq-ovqat, pul daromadi va ish bilan ta'minlaydi. Shuningdek, chorvachilik yuqori quvvatga ega go'ng va o'g'it bilan dehqon xo'jaliklarini ta'minlab, ularning hosildorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Bir vaqtning o'zida dehqon xo'jaliklarining chorva mollariga ham egalik qilishi iqtisodiy barqarorlikni saqlashga yordam beradi. Chorvachilik bilan shug'ullanuvchi korxonalar faoliyati bozor, texnologiya sohasida olib borilayotgan tadqiqotlar jihatidan o'rganilganda, chorvachilikda tadbirkorlikning asosiy muammolari o'z-o'zini ish bilan ta'minlash imkoniyatlarini amalga oshirish uchun to'siqlar mavjudligi va yana hal qilinmagan bir qancha muammolar to'plami va tarmoqni institutsional tartibga solishning yo'qligi aniqlandi" kabi fikrlarni "European journal of business and management" jurnalida chop etilgan ilmiy maqolasida keltirib o'tgan [2].

Ukrainalik iqtisodchi E.B.Шубравская: "Qishloq xo'jaligini modernizatsiya qilish texnika, texnologiya va resurslarni yangilash, qishloq xo'jaligi faoliyatining natijalari ijtimoiy yo'naltirilganligi tamoyiliga muvofiq agrar innovatsiyalarni joriy etish orqali raqobatbardosh va barqaror rivojlanishga erishishdir", – deb ta'kidlagan [3].

Rossiyalik iqtisodchi H.A.Сафаровning fikriga ko'ra, tannarx me'yorlari va mehnat sarfi me'yorlariga rioya qilish va chorva mollarini saqlash sharoitlariga qo'yiladigan talablarga rioya qilish mahsulotning umumiy xarajatlarini belgilaydi va mahsulot birligiga to'g'ri keladigan tannarxga sut mahsuldorligi ta'sir qiladi [4].

Innovatsion iqtisodiy rivojlanishning nazariy asoslarini XX asr boshlarida Ж.Шумпетер yaratib, innovatsiyani ishlab chiqarish omillaridan biri sifatida belgilab, shunday ta'kidlagan edi: "Ishlab chiqarish funksiyasi mahsulotning miqdoriy o'zgarishini,

ishlab chiqarish hajmining o'zgarishiga ta'sir etuvchi butun bir omillar majmuasini hisobga olgan holda tavsiflaydi. Agar omillar yig'indisida biz funktsiya shaklini o'zgartirsak, biz yangilikka erishamiz" [5].

Mozambik xalqaro ilmiy-tadqiqot instituti professori S.Moyo: "Chorvachilik, ayniqsa, rivojlantirgan mamlakatlarda aholi turmush tarzida bir qancha muhim vazifalarni bajaradi. Ayniqsa, kambag'allik sur'ati yuqori bo'lgan hududlarda oziq-ovqat va ovqatlanish, bandlik, iqtisodiy va ijtimoiy ta'minotda uning o'rni va ahamiyati yuqoridir", – deb ta'kidlagan edi [6].

Tadqiqot metodologiyasi. Ilmiy tadqiqot mobaynida maqolada analitik tahlil, qiyosiy tahlil, statistik ma'lumotlar tahlili, chorvachilikni rivojlantirishning aholi farovonligidagi o'rni va unga ta'siri o'rganilgan. Tadqiqotda qiyosiy tahlil, statistik ma'lumotlar tahlili yo'nalishlari orqali muammoni chuqurroq o'rganishga harakat qilingan. Muammoning yechimiga olib boruvchi asosiy yo'nalishlar belgilangan. Tadqiqot obyekti sifatida esa mamlakati-mizda faoliyat yurituvchi chorvachilik fermer xo'jaliklari tanlab olingan.

Tahlil va natijalar muhokamasi. Agrobiznesning har qanday ko'rinishini rivojlantirish uchun tarmoq ichidagi va tarmoqlararo kooperatsiya aloqalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Tarmoqlararo aloqalarga ixtisoslashganlik agrobiznesning iqtisodiy imkoniyatlariga katta ta'sir ko'rsatadi. Yanada aniqroq qilib aytadigan bo'lsak, qishloq xo'jaligida sut chorvachiligini rivojlantirish uchun agrosanoat integratsiyasida iqtisodiy hamkorlikni o'zaro mutanosib tarzda ta'minlab borish ustuvor vazifa bo'lib qolmoqda. Quyida keltirib o'tilgan chizma orqali sizlar bilan sut chorvachiligini strategik rivojlantirish uchun zarur bo'lgan rag'batlantiruvchi hamda ularni amalga oshirishda to'sqinlik qiluvchi omillardan bir qanchasi keltirib o'tilgan (1-jadval).

Bugungi kunda sut yetishtirish fermer xo'jaliklari faoliyati jarayoni natijasida olinadigan shunchaki mahsulot emas, balki tadbirkorlikning eng serdaromad va yuqori talabga ega tijorat turiga aylanib ulgurdi. Shu sababli ham bugun ushbu tarmoqda mahsuldorlikni oshirish va bir birlik mahsulotga to'g'ri keladigan xarajatlarni kamaytirish uchun innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirish zarur (1-chizma).

Shuningdek, qishloq hududlarida kambag'allik va ihsizlikni kamaytirish, shu bilan bir qatorda, daromadlar tengsizligini qisman bo'lsa-da, bartaraf etishda ham daromad, ham oziq-ovqat manbaya sifatida sutchilik tarmog'ining ahamiyati kattadir. Shu tufayli ham ushbu tarmoqni innovatsion asosda rivojlantirish orqali qishloq xo'jaligi iqtisodiyotining ham sezilarli darajada rivoj topishiga erishish mumkin.

Sut chorvachiligini strategik rivojlantirishda ta'sir etuvchi cheklovchi va rag'batlantiruvchi omillar

Strategik rivojlanishning inertial turi		Strategik rivojlanishning innovatsion turi	
Tanlovni cheklovchi omillar	Tanlovni rag'batlantiruvchi omillar	Tanlovni cheklovchi omillar	Tanlovni rag'batlantiruvchi omillar
1. Iqtisodiy almashinuv muvozanatining buzilishi. 2. Resurslarning cheklanganligi. 3. Kutilmagan ichki yoki tashqi ta'sir va vaziyatlarga nisbatan bardoshsizlik.	1. Xo'jalik yurituvchi subyektlar tomonidan jamg'armalarni samarali amalga oshirish. 2. Modernizatsiya tadbirlarini kengaytirish imkoniyatining oshib borishi.	1. Innovatsiyalarni ishlab chiqarishga joriy etishning aniq belgilangan mexanizmlarining yo'qligi. 2. Biznesga ilg'or texnologiyalarni olib kirish uchun investitsiyalarning rag'batlantiruvchi mexanizmlari yo'qligi. 3. Tarmoqni moliyaviy jihatdan qo'llab-quvvatlashda muammolarning mavjudligi. 4. Sanoatning past rentabelligi.	1. Tashkiliy va iqtisodiy rivojlantirishni modellashtirishda dasturiy yondashuv. 2. Risklarni boshqarishda vakolatlar berish. 3. Texnik qayta jihozlashda davlat ko'magini joriy etish. 4. Intellektual mulkni himoya qilish mexanizmining mavjudligi.

Izoh: *Inertial** – hech narsa qilmaslik yoki o'zgarishsiz qolish tendensiyasi.

Manba: muallif tomonidan to'plangan ma'lumotlar asosida tuzilgan.

O'zbekistonda agrar iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish yo'nalishlari, qishloq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirishga qaratilgan ustuvor vazifalar, bugungi kunda chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish borasida shakllangan iqtisodiy mexanizmlar haqida so'z yuritganda, ularning qonuniy asosiga alohida to'xtalib o'tish joiz. Mamlakatimizda bugungi kunda chorvachilik sohasi va uning tarmoqlarini rivojlantirish maqsadida 2022-2026-yillarga mo'ljallangan dastur qabul qilingan. Unga ko'ra, mamlakatda chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirish orqali oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, ishlab chiqarishning zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va ilm-fan yutuqlaridan samarali foydalanishni yo'lga qo'yish vazifalari belgilab berilgan.

Shuningdek, ushbu dasturda sut va go'sht mahsulotlarini saqlash, ozuqa tayyorlash, chorva mollarini parvarishlash samaradorligini oshirish orqali sohada mehnat sarfini kamaytirish hamda ishlab chiqarish xarajatlarini qisqartirish, chorvachilik sohasiga doir texnologik, marketing, iqtisodiy, ilmiy va amaliy foydali ma'lumotlarni o'z ichiga oluvchi "Chorva" mobil ilovasini ishlab chiqish va amaliyotga joriy etish, chorva mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar bilan iste'molchilar o'rtasida integratsiyani kuchaytirish va sifat xavfsizligi barqarorligini ta'minlash ham nazarda tutilgan [7].

Chorvachilikni rivojlantirishning strategik maqsadi aholini go'sht va sut mahsulotlari bilan ta'minlashdan iborat. Shuningdek, o'z resurslaridan foydalanish orqali integratsiyalashgan barqarorlik asosida ushbu sohada sanoatni rivojlantirish, tovar ishlab chiqaruvchilar faoliyatini yo'lga qo'yishdan iborat. Bunga iqtisodiyotning agrar sektorida ishlab chiqarish salohiyatini oshirish orqali erishish mumkin. Buning uchun, avvalambor, sanoatning innovatsion asosda jadal rivojlanishini ta'minlash lozim. Mamlakatning ushbu tarmoqni rivojlantirish uchun tanlagan strategiyasi pirovard maqsadini ham aynan

innovatsion asosda rivojlanish, rivojlangan mamlakatlar tajribasidan faol foydalanish tashkil etadi.

Davlatning buning kundagi chorvachilik sektorida erishayotgan yutuqlarining asosiy omili esa sohada muntazam yangilanishlar va innovatsion yondashuvlarning sur'ati yuqori ekanligidadir.

Ahamiyatlisi, bunday salohiyatli fermalar soni esa yildan yilga oshib bormoqda.

Yevropa tahlilchilari fikriga ko'ra butun dunyoda yetishtiriladigan jami sutning o'rtacha 2,3 foizi Gollandiya hisobiga to'g'ri keladi. Shu bilan birga, jami sutning 55 foizi qayta ishlanib, pishloq ishlab chiqariladi va dunyodagi eng yirik pishloq eksportchisi hisoblanadi [8]. Gollandiyaning bunday yutuqlari zamirida ko'pchilik ekspertlar fikriga ko'ra quyidagi omillar yotadi:

- birinchi navbatdagi asosiy omil tarmoqni iqtisodiy, tashkiliy va texnologik jihatdan modernizatsiyalash kompleks tarzda olib boriladi. Natijada bir tizimning rivojlanishi ikkinchi tizimni inkor etmaydi;


- oziqlanish ratsioni va ozuqa bazasini shakllantirish eng asosiy o'rinda ekanligi;

- chorva mollarining jismoniy holati yuqori imkoniyatli texnologiyalar vositasida doimiy nazoratga olinganligi;

- chorva mollarini parvarishlash jarayoni ham zamonaviy texnologiyalarga asoslangan ekanligi;
- butun tizimning avtomatlashgan ekanligi va kompyuter texnologiyalarining keng miqyosda joriy etilganligi;

- sohada xizmat ko'rsatishning samarali tashkil etilganligi va bu orqali ozuqa yetkazib berish, asbob-uskunalarini qayta ta'mirlash va veterinariya xizmatlari qisqa vaqt mobaynida sifatli bajarilishiga erishilishi;

- tarmoqlararo integratsion va kooperatsion tizimning yaxshi yo'lga qo'yilganligidir. Sababi sut fermalari faqat sut yetishtiradi. Unga xizmat ko'rsatish va uni sotish va sotib olish bilan bog'liq ishlar kooperatsiyalar tomonidan amalga oshiriladi.



1-chizma. Sut chorvachiligini rivojlantirish strategiyasi elementlari

Manba: muallif tomonidan to'plangan ma'lumotlar asosida tuzilgan.

Chorvachilik sohasini rivojlanishning yuqori darajasiga olib chiqish uchun sohaning har bir bo'g'ida innovatsiyalarni qo'llash maqsadga muvofiq ekanligini biz Gollandiya tajribasi, ularning rivojlanish uchun tutgan yo'li va yondashuvi orqali ekanligi guvohi bo'ldik. Endilikda biz tarmoq uchun, dastavval, aynan qaysi o'rinlarda innovatsiyalarni qo'llash maqsadga muvofiqligi ustida to'xtalib otamiz.

Sohada hozirda mavjud bo'lgan qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun texnologik innovatsiyalarni qo'llash, shuningdek, sut chorvachiligida yaratilayotgan innovatsiyalarni laboratoriyadan dalaga o'tkazish, ya'ni amaliyotga joriy etish sigirlarning kutilayotgan mahsuldorligiga erishish va natijada fermerlarga ko'proq iqtisodiy daromad olishi va mahsulot tannaxini pasaytirishiga zamin yaratadi. Quyida yana sut chorvachiligining turli muammolari, hayvonlarda uchraydigan kasalliklar, sut chorvachiligi innovatsiyalari va ushbu holatlarga laboratoriya yondashuvlari xususida to'xtalib o'tamiz.

Chizmada sut chorvachiligida uchraydigan asosiy muammolar va ularning yechimi sifatida taklif etilayotgan innovatsiyalar keltirib o'tilgan (2-chizma).

Shu bilan bir qatorda, mahsuldorligi yuqori bo'lgan sigirlar bilan ishlashda, ayniqsa, kasalliklarga qarshi kurashish, oziqlanish va kun tartibini to'g'ri tashkil etish strategiyasi jihatidan juda ham e'tiborli bo'lish talab etiladi. Naslchilikda eng keng tarqalgan usul sun'iy urug'lantirishdir. Bu usul butun dunyo bo'ylab keng tarqalgan ART (Assisted Reproductive Technology), ya'ni yordamchi reproduktiv texnologiya vositasida amalga oshiriladi. Shuningdek, bu texnologiya vositasida eng sog'lom buqalarning eng sog'lom tuxum hujayralari tanlab olinadi va qoramollarni turli xildagi venerik kasalliklardan himoya qilish imkonini beradi. Ushbu usulning eng samarali tanlov ekanligini bugungi kunda Hindistonning bu borada erishgan yutuqlarida ko'rishimiz mumkin. Sababi bu mamlakatda sun'iy urug'lantirish orqali naslchilikni eng tez va samarali usulda ko'pay-

tirish keng tarqalgan bo'lib, natijada Hindiston dunyo bo'ylab sut yetishtirish bo'yicha yetakchi mamlakatlar safidan joy olib kelmoqda.

Yana bir naschilikni rivojlantirishda qo'llaniladigan texnologiya ETT (Embrion transfer technology) – embrion o'tkazish texnologiyasidir. Bu texnika butun dunyo bo'ylab chorvachilikni yuqori sur'

atda rivojlantirish uchun qo'llaniladi. U eng yuqori sifatli erkak va urg'ochi qoramollarning genetik sa-lohiyatidan bir vaqtning o'zida foydalanish imko-niyatini beruvchi innovatsion texnologiyalardan biridir. Lekin ushbu texnikaning yuqori narxi uni dunyo bo'ylab keng tarqalishiga to'sqinlik qilmoqda.

Sut chorvachiligining asosiy muammolari:

- molxonalarni sifatli va to'g'ri tashkil etish;
- ideal tana vazniga erishish;
- estrus va sikllilikni ta'minlash;
- issiqlikni aniqlash;
- ish yuritish jarayonini nazoratga olish;
- tug'ruqdan keying parvarish;
- tug'ruq jarayonining gigiyenasi;
- muvozanatli va kaloriyali oziqlantirish;
- iqtisodiyot va marketingni to'g'ri yo'lga qo'yish.

Yuqoridagilarga qo'shimcha ravishda yana bir qancha umumiy kasalliklar: takroriy naschilik, anoestrus, prolaoz, distosiya, yuqumli kasalliklar, abort, mastit, ovqat hazm qilish kasalliklari va turli xildagi yaralar shular jumlasidandir.

Muammolarning yechimi sifatida taklif etilayotgan innovatsiyalar:

- I. Adoptatsiya jarayoni uchun innovatsiyalar:
 - urug'lantirish jarayonini vaqt va nasl jihatidan qat'iy nazorat qilish;
 - guruhlarga bo'lib bolalash tizimini joriy qilish;
 - fermer xo'jaligini mexanizatsiyalash;
 - robotlashtirilgan texnikalarni qo'llash;
 - tuyoqlarni kesish;
 - poda salomatligini dasturlash;
 - emlash;
 - degelmintizatsiya;
 - mobil ilovalarni qo'llash rejimiga o'tish;
 - boshqaruv vositalarini to'g'ri tashkil etish.
- II. Laboratoriyadan amaliyotga joriy etish:
 - treninglar tashkil etish;
 - fermer xo'jaliklari adabiyotlari (gazeta, jurnal va boshqa turdagi o'quv qo'llanmalari)ni tashkil etish;
 - hayvonlar salomatligi kalendarlarini tashkil etish;
 - ushbu yo'nalish doirasida kerakli va zarur maslahatlar, yangiliklarning ijtimoiy tarmoqlar, televideniya, radio va h.k. orqali tarqalishini ta'minlash.

2-chizma. Sut chorvachiligidagi asosiy muammolarga taklif etilayotgan innovatsiyalar

Manba: muallif to'plagan ma'lumotlar asosida tuzildi.

Yana bir muhim innovatsiyalardan biri sutchilik tarmog'ida oziqlantirish strategiyalaridir. Sababi sifatli va kaloriyali ozuqa mahsulotlari bilan ta'minlash mahsuldorlikning oshishida asosiy rol o'ynaydi. Oziqlantirish sut ishlab chiqarishning umumiy qiymatining 60-70 % qismini tashkil etadi. Oziqlantirishni to'g'ri yo'lga qo'yish va boshqarish orqali sog'in sigirlarning haqiqiy imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanishga erishish mumkin. Muvozanatlashgan ozuqa masalan, ko'k va quruq yem hamda konstratli ratsion xo'jalikning barqaror rivojlanishi va rentabelligida muhim ahamiyat kasb etadi.

Oziqlantirishda keng tarqalgan va ommalashgan innovatsion strategiya umumiy aralash ratsion – TMR (Total Mixed Ration)ga amal qilishdir. Umumiy aralash ratsioni sog'in sigirlarning ehtiyojlarini qondirish uchun yetarli darajada oziqlanishni ta'minlaydigan barcha ozuqalarni to'liq ratsionga jalb qilish va aralashtirish jarayonini o'z ichiga oladi. Iste'mol qilingan ozuqaning har bir qismi energiya, vitamin, oqsil va minerallar kabi muhim ozuqa moddalarini o'z ichiga olgan bo'ladi [9].

Xulosa va takliflar. Bugungi kunda dunyo bo'ylab o'z faoliyatida innovatsiyalarni qo'llayotgan chorvachilikka ixtisoslashgan fermer xo'jaliklari tabiatga jiddiy xavf yetkazmoqda. Sababi mahsuldorligi past bo'lgan sigirlardan katta miqdorda sut mahsulotini olish uchun yagona chora ularning bosh sonini ko'paytirishdir. Bu esa resurslarning haddan ortiq ishlatilishiga va chiqindining ko'p miqdorda chiqishiga, naslchilikning samarasizligiga, ozuqa va yem-xashakdan samarasiz foydalanishga, veterinariya xizmati to'g'ri joriy etilmasligiga, fermer xo'jaliklarida boshqaruv jarayonlarining noto'g'ri tashkil etilishiga olib keladi.

Sut fermalari daromadni yaxshilash uchun har bir sigirdan olinadigan sut miqdorini oshirishga diqqat qaratmog'i lozim. Natijada ozuqa, suv, zarur bo'sh joy miqdorini kamaytirishga erishiladi va bir litr sut birligiga to'g'ri keladigan xarajatlar miqdorini birmunchaga kamaytiradi.

Biz ushbu maqolada naslchilik, qoramollarni oziqlantirish, tizimni to'g'ri tashkil etish, jonivorlar salomatligini saqlash, profilaktika chora-tadbirlari, chiqindilarni kamaytirish, sutning va sog'in sigirlarning mahsuldorligini oshirish, yetishtirilgan mashu-

lotning sifatini ta'minlash kabi masalalarga va ularning yechimi bo'lgan innovatsion strategiyalarning bir qanchasiga to'xtalib o'tdik.

Foydalanuvchilar uchun qulay, tejamkor, oson yangilanadigan, mahalliylashgan, ya'ni har jihatdan mintaqa talablariga javob beradigan innovatsiyalarga bugungi kunda ehtiyoj katta. Mahalliy va mintaqaviy o'ziga xos texnologiyalarni ishlab chiqarish va ularni iqlim va tabiiy sharoit jihatdan mos keladigan o'xshash ijtimoiy-geografik mintaqalar orasida ham keng tarqatish, innovatsiyalarning maqsadli insonlarga, ya'ni kerakli joyga kerakli vaqtda yetib borishini ta'minlash bugungi kundagi dolzarb masala hisoblanadi. Barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun

mintaqalar bo'ylab texnologiyalarni o'zlashtirishni kuzatib borish, uni tarqatish yuzasidan sa'y-harakatlar sur'atini oshirish darkor. Bo'lmasa yaratilayotgan har qanday yangilik, innovatsiya qog'ozlar, kitoblarda qolib ketadi. Bu borada ko'proq treninglar o'tkazish, ko'rgazmalar tashkil etish, dala va chorvachilik fermer xo'jaliklariga tashriflar sonini oshirish, o'zaro tajriba almashinish orqali fermerlarning bilimlarini boyitish, o'z ishlariga nisbatan munosabat va tushunchalarini yaxshi tarafga o'zgartirish, ularni yangiliklar va ularning samarali jihatlaridan boxabar qilib borish kabi sa'y-harakatlarni amalga oshirish maqsadga muvofiq.

Manba va foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Гайдук В.И., Бершицкий Ю.И., Шибанихин Е.А., Березенков В.В., Артемова Е.И. Организационно-экономические аспекты повышения эффективности молочного скотоводства и кормопроизводства. – Краснодар: КГАУ. 2006. – 172 с.
2. Habtamu Lemma, Wolaita Sodo University, Ethiopiya. *European Journal of Business and Management* Vol.6, No.4, 2014.
3. Шубравская Е.В. и др. Перспективы модернизации аграрного сектора Украины. *Экономика Украины*. 2013. № 8 (613). Стр. 65.
4. Safronov N.A. *Korxonalar iqtisodiyoti. Darslik.* / N.A.Safronov [va boshqalar]. 2-nashr, rev. va qo'shimcha. – M.: Iqtisodchi, 2004. – 618 b.
5. Shumpeter J. *Iqtisodiy rivojlanish nazariyasi.* / Ed. V.S. Avtonomova. / J.Shumpeter. – Moskva: "Directmedia" nashriyoti, 2008. – 433 b.
6. Multifunctionality of Livestock in Developing Communities S. Moyo1 and F.J.C. Swanepoel2 Produced by SUN MeDIA Bloemfontein 59 Brill Street, Westdene, Bloemfontein, South Africa, 9301 www.africansunmedia.co.za / www.sun-e-shop.co.za
7. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining qarori, 08.02.2022-yildagi PQ-120-son.
8. <https://tour-pronl.com/delovoi-turizm/tury-dlya-professionalov-niderlandy/zhivotnovodcheskie-fermy-gollandii/>.
9. Dairy Farming Innovations for Productivity Enhancement. Written by: Vidya Nimbalkar, Harish Kumar Verma and Jaswinder Singh. Published: December 6th, 2021. DOI: 10.5772/intechopen.101373.
10. Стратегия развития молочного скотоводства на инновационной основе. Автор: Т.К.Валерьевич. – Мичуринск, 2019.
11. Sadullayev U.N. Go'sht va sut yetishtirish sohasini modernizatsiyalashni rag'batlantirishning asosiy yo'nalishlari. PhD ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiyasi. – T., 2020.
12. Cattle/cow population worldwide 2012-2023 Published by M.Shahbandeh, Apr. 13, 2023. Statista.com.
13. FAOSTAT. Statistics Division, Food and Agriculture Organization of the United Nations, Rome, Italy. *The Global Dairy Sector: Facts* [Internet]. 2016. [Accessed: May 15, 2021].
14. Eshqulova H.Sh. Sut chorvachiligida mahsuldorlikni oshirish uchun innovatsiyalarni joriy etish va uning soha rivojidagi ahamiyati. Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. *Ilmiy jurnal*. № 9/2 (106), Xorazm Ma'mun akademiyasi, 2023-y. – 138 b. Bosma nashrning elektron varianti: <http://mamun.uz/uz/page/56>
15. FAO. *The State of Food and Agriculture – Livestock in the Balance* [Internet]. 2009. Available from: <http://www.fao.org/3/io68oe.pdf> [Accessed]: May 15, 2021].



**ИҚТИСОДИЁТДА ҚўШИЛГАН ҚИЙМАТНИ ОШИРИШДА
ИННОВАЦИЯЛАР АҲАМИЯТИ**

https://doi.org/10.55439/ECED/vol24_iss5/a8

Тешабоева Зилола Тошпўлатовна -
Андижон машинасозлик институти
катта ўқитувчиси

Аннотация. Мақолада иқтисодиётда қўшилган қийматни оширишда инновацияларнинг аҳамияти кўрсатилган, “қўшилган қиймат” тушунчаси моҳияти кўриб чиқилган, инновацияларнинг барқарор ривожланишга таъсири таҳлил қилинган. Мамлакатнинг инновацион ривожланиши таҳлили асосида иқтисодиётда “қўшилган қиймат занжири”ни ошириш йўллари таклиф этилган.

Калит сўзлар: қўшилган қиймат, инновациялар, инновацион салоҳият, ахборот технологиялари, инновацион технологиялар, қўшилган қиймат занжири.